

---

## **MESOPOTAMIYA SIVILIZATSIYASI VA UNING DUNYO TARIXIDAGI ROLI**

**Nafasova Yulduz Xudoyqul qizi**

*SHahrishabz davlat pedagogika instituti*

*Tarix yo`nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Mesopotamiya sivilizatsiyasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, madaniy va ilmiy yutuqlari, diniy-mafkuraviy qarashlari hamda siyosiy tuzilmasi tahlil qilingan. Sivilizatsiya tushunchasining nazariy asoslariga tayanilgan holda Mesopotamiya xalqlari – shumerlar, akkadlar, bobilliklar va ossuriylarning tarixiy merosi o‘rganiladi. Mixxat yozuvi, qonunlar tizimi, shahar-madaniyati va diniy institatlarning jamiyatdagi o‘rni ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Maqola Mesopotamiya sivilizatsiyasining jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyatini ochib beradi.

**Kalit so‘zlar:** Mesopotamiya, sivilizatsiya, Shumer, Akkad, Bobil, Ossuriya, Xammurapi, mixxat yozuvi, madaniy meros, diniy tizim, siyosiy tuzilma.

## **MESOPOTAMIAN CIVILIZATION AND ITS ROLE IN WORLD HISTORY**

**Abstract:** This article analyzes the formation, developmental stages, cultural and scientific achievements, religious-ideological beliefs, and political structure of Mesopotamian civilization. Based on the theoretical foundations of the concept of civilization, the historical legacy of Mesopotamian peoples—Sumerians, Akkadians, Babylonians, and Assyrians—is explored. The role of cuneiform writing, legal systems, urban culture, and religious institutions in society is examined through scholarly sources. The article reveals the place and significance of Mesopotamian civilization in the development of world civilization.

**Keywords:** Mesopotamia, civilization, Sumer, Akkad, Babylon, Assyria, Hammurabi, cuneiform script, cultural heritage, religious system, political structure.

## МЕСОПОТАМСКАЯ ЦИВИЛИЗАЦИЯ И ЕЁ РОЛЬ В МИРОВОЙ ИСТОРИИ

**Аннотация:** В данной статье проанализированы становление, этапы развития, культурные и научные достижения, религиозно-идеологические взгляды и политическая структура Месопотамской цивилизации. Основываясь на теоретических аспектах понятия цивилизации, рассматривается историческое наследие народов Месопотамии — шумеров, аккадцев, вавилонян и ассирийцев. На основе научных источников освещаются роль клинописного письма, правовой системы, городской культуры и религиозных институтов в обществе. В статье раскрывается место и значение Месопотамской цивилизации в развитии мировой цивилизации.

**Ключевые слова:** Месопотамия, цивилизация, Шумер, Аккад, Вавилон, Ассирия, Хаммурапи, клинопись, культурное наследие, религиозная система, политическая структура.

### KIRISH

Sivilizatsiya tushunchasi insoniyat tarixini tushunishda asosiy nazariy vositalardan biridir. Bu atama ilk bor lotincha civilis – shaharlik, fuqarolik degan ma’noni anglatgan bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichini, jamiyatda shaharlar, yozuv, davlat, mehnat taqsimoti va yuqori darajadagi madaniyat unsurlarining mavjudligini bildiradigan tizimli tuzilma sifatida keng talqin etila boshlandi. Sivilizatsiya yondashuvi XIX–XX asrlarda madaniy-tarixiy maktablar tomonidan jahon tarixini tahlil qilishda asosiy metodologik yondashuvga aylandi. Jumladan, A.Toynbi, N.Danilevskiy, F.Gizo, L.Fevr, P.Sorokin kabi mutafakkirlar tarixiy jarayonni ko‘p sivilizatsiyali modelda izohlab, har bir sivilizatsianing o‘ziga xos madaniy, ijtimoiy va ruhiy asoslari mavjudligini ta’kidladilar.[1]

Bu nazariy asosda qadimgi dunyo tarixining ilk va eng muhim bosqichlaridan biri – Mesopotamiya sivilizatsiyasi alohida o‘rin egallaydi. Mesopotamiya – hozirgi Iraq hududidagi Dajla va Furot daryolari oralig‘ida joylashgan bo‘lib, u “sivilizatsiyalar beshigi” deb ataladi. Miloddan avvalgi to‘rtinchı ming yillikda bu hududda paydo bo‘lgan shahar-davlatlar, yozuv (mixxat), qonunlar, ibodatxonalar, sug‘orish tizimlari va boshqaruv tuzilmalari insoniyat tarixida mutlaqo yangi taraqqiyot darajasini anglatgan. Shumerlar, Akkadlar, Bobilliklar va Ossuriyaliklar tomonidan asos solingan bu sivilizatsiya nafaqat Yaqin Sharq, balki butun insoniyat madaniyatining poydevoriga aylangan.



Mesopotamiya sivilizatsiyasining tarixiy roli shundaki, u birinchi yozuv shakli – mixxatni yaratdi, Xammuropi qonunlar majmuasi orqali ilk huquqiy tizimni shakllantirdi, astronomiya, matematika va arxitektura sohalarida ilm-fanni rivojlantirdi. Bu sivilizatsiyada shakllangan siyosiy, diniy va madaniy institutlar keyingi barcha qadimgi sivilizatsiyalar, xususan, Misr, Eron, Yunon va Rim madaniyatlariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Shu sababli Mesopotamiya sivilizatsiyasi insoniyat tarixida fundamental tarixiy-taraqqiyiy turning asoschisi sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur maqolada Mesopotamiya sivilizatsiyasining shakllanishi, asosiy madaniy-ma'naviy jihatlari va uning jahon tarixidagi o'rni tahlil qilinadi. Shu bilan birga, uning boshqa qadimgi sivilizatsiyalar bilan o'zaro ta'siri, universal qadriyatlar tizimiga qo'shgan hissasi ham yoritiladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Mesopotamiya sivilizatsiyasi haqida bir qator nufuzli manbalarda keng va chuqur ilmiy tahlillar berilgan. A.V. Ostrovskiyning "История цивилизаций" asarida Mesopotamiya ilk shahar sivilizatsiyasi sifatida talqin qilinib, uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzilmalari, yozuv tizimi va qonunchiligi (masalan, Xammurapi qonunlari) tarixiy nuqtai nazardan baholanadi. Y.V. Yakovets esa "История цивилизаций" nomli asarida Mesopotamiyani global sivilizatsiyalar rivojlanishining ilk pog'onasi sifatida ko'rsatadi va u yerda shakllangan diniy-ideologik tizimlarning keyingi sivilizatsiyalar taraqqiyotiga ta'sirini tahlil qiladi. R. Rajabovning "Qadimgi dunyo tarixi" nomli darsligida Mesopotamiya tarixining bosqichlari, davlatlari (Shumer, Akkad, Babil), moddiy va ma'naviy madaniyati chuqur o'rganilgan. L.B. Qodirova hamda D.J. Urakovning "Jahon sivilizatsiyalari tarixi" bo'yicha qo'llanmalari Mesopotamiya sivilizatsiyasini qadimgi Sharq sivilizatsiyalari kontekstida o'rganadi va uni insoniyat tamaddunining ilk shakllanish markazi sifatida baholaydi. Bu adabiyotlar Mesopotamianing dunyo tarixidagi o'rni va merosini har tomonlama ochib beradi.

### **METODOLOGIYASI**

Ushbu maqolada tarixiy-sivilizatsion yondashuv asosiy metodologik asos sifatida tanlangan. Mesopotamiya sivilizatsiyasining rivojlanishi va uning jahon tarixidagi o'rnini tahlil qilishda tarixiy-komparativ (solishtirma), tizimli tahlil va tarixiy-tipologik usullar qo'llaniladi. Manbalar tanqidiy tahlil qilinib, sivilizatsiyaning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ilmiy jihatlari bir-biri bilan bog'liq holda o'rganiladi. Shuningdek, qadimgi Mesopotamiya madaniy merosining keyingi sivilizatsiyalarga ko'rsatgan ta'siri sivilizatsiyalararo uzviylik tamoyili asosida izohlanadi. Ilmiy adabiyotlar asosida xulosalar chiqariladi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mesopotamiya – qadimgi Sharqning eng yirik va boy tarixiy sivilizatsiyalaridan biri sifatida insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan. “Ikkidaryo oralig‘i” deb tarjima qilinadigan bu atama Dajla (Tigr) va Frot (Yevfrat) daryolari oralig‘ida joylashgan hududni ifodalaydi.[2] Uning tabiiy va iqlimi sharoitlari dehqonchilik, sug‘orish tizimlari, doimiy aholi punktlari hamda murakkab jamiyatlarning shakllanishiga imkon yaratdi. Shuning uchun Mesopotamiya dunyodagi eng qadimgi sivilizatsiyalardan biri sifatida qaraladi va ko‘plab tarixiy bosqichlar orqali insoniyat taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan.

Mesopotamiya hududida dastlab Xassun, Xalaf va Ubayd madaniyatlarini rivoj topdi. Miloddan avvalgi VI–V ming yilliklarda vujudga kelgan Xassun madaniyati o‘troq turmush tarzining shakllanishidan darak beradi. Ko‘p xonali paxsa inshootlar, metall quollar va bezakli sopol buyumlar bu madaniyatning rivojlanganligidan darak beradi.[2]

Xalaf madaniyati (m.a. V ming yillik) o‘zining badiiy sopol idishlari, ayollar haykalchalari va turar joylari bilan ajralib turadi. Bu davrda dehqonchilikdan ajralgan hunarmandchilik, ayirboshlash asosidagi savdo munosabatlari shakllana boshlagan. Keyinchalik Ubayd madaniyati (m.a. V ming yillik oxiri – IV ming yillik boshi) keng hududga yoyildi.[3] Bu davrda sug‘orish tizimlari paydo bo‘ldi, ibodatxonalar barpo etildi, ijtimoiy tabaqalanish kuchaydi. Aynan Ubayd davri Shumer madaniyatining ilk bosqichlarini tayyorladi.

Miloddan avvalgi IV ming yillik oxiriga kelib, Mesopotamiya janubida Uruk madaniyati taraqqiy etdi. Bu davrda shaharlik hayoti keng tus oldi, shahar-davlatlar paydo bo‘ldi (Eedu, Ur, Uruk, Larsa, Kish). Savdo, hunarmandchilik va metallurgiya alohida tarmoqlarga ajraldi, ijtimoiy tabaqalanish kuchaydi, yozuv va davlat boshqaruvi tizimlari shakllandi. Yerni sotish-sotib olish va quzdorlik munosabatlari paydo bo‘ldi. Aynan shu davrda ilk marta shumerlar tomonidan mixxat yozuvi ishlab chiqildi va bu insoniyat tarixida yozuvli madaniyatning boshlanishi sifatida baholanadi.[4]

Shumerlar tomonidan barpo etilgan shahar-davlatlar o‘zaro raqobatda bo‘lgan. Ularning boshida “En”, keyinchalik “Ensi” va “Lugal” (podsho) turardi. Kish, Uruk va Ur kabi shaharlar navbatma-navbat siyosiy yetakchilikka erishgan.[4] Uruk hukmdori Gilgamish nomi afsonaviy eposlarda abadiylashtirilgan bo‘lsa, Lagash shahrining siyosiy yuksalishi va qudratli ibodatxonalarining barpo etilishi bu hududdagi diniy-siyosiy kuchlarning o‘zaro aloqasini namoyon etadi.

Miloddan avvalgi XXIV asrda Lugalzagissi butun Shumer hududini birlashtirdi, amma bu birlashuv qisqa muddatli bo‘ldi. Tez orada Mesopotamiyaning shimolidan kelgan semit xalqlar – akkadlar sahnaga chiqdi. Akkad podshosi Sargon (m.a. 2316–2261 yy.) kuchli markazlashgan davlat barpo etdi. Bu dunyodagi ilk imperiyalardan biri bo‘lib, u nafaqat Shumer hududlarini, balki Elam, Suriya va boshqa qo‘shni yerlarni ham o‘ziga

bo‘ysundirdi.[4] Shumer va Akkad madaniyatlarining sintezi Mesopotamiya tarixidagi muhim davrni belgiladi.

Mesopotamiya hududi tarix davomida turli etnik guruhlarning makoni bo‘lgan. Shumerlar tili izolyat til bo‘lib, boshqa tillar bilan qarindoshligi aniqlanmagan. Akkadlar esa semit tilida so‘zlashgan. Miloddan avvalgi III ming yillikdan boshlab Mesopotamiyada akkad tili hukmron bo‘la boshladi va diplomatik hamda ilmiy yozuvlarda ishlatildi.[5]

Shumerlar va akkadlar uzoq vaqt davomida birga yashab, o‘zaro madaniy almashinuvda bo‘lganlar. Bu xalqlar o‘rtasida etnik ziddiyatlar emas, balki madaniy sintez kuzatilgan. Buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar tasdiqlaydi. Har ikki xalq o‘zlarini “qora boshlilar” deb atagan va umumiyligini sivilizatsiyaga mansub bo‘lganliklarini anglaganlar.

Shumer va Akkadlar o‘rnini keyinchalik boshqa qadimgi davlatlar egalladi. Miloddan avvalgi II ming yillikda Bobil podsholigi, ayniqsa Hammurapining (m.a. XVIII asr) islohotlari va qonunlari bilan mashhur bo‘ldi. Hammurapining qonunlar to‘plami dunyo tarixidagi eng qadimgi huquqiy hujjatlardan biri sifatida tan olinadi.[6] Bu qonunlar mulkiy huquqlar, jinoyat va jazo, oila va mehnat munosabatlarini tartibga solgan.

Shimoliy Mesopotamiyada Mitanni, Assuriya va Urartu davlatlari shakllandi. Assuriya imperiyasi o‘zining harbiy kuchi, markazlashgan boshqaruv tizimi va savdo yo‘llarini nazorat etishi bilan ajralib turdi. Assuriyaliklar davrida mixxat yozushi yanada mukammallahdi, kutubxonalar tashkil etildi (masalan, Ninoviyadagi Ashshurbanipal kutubxonasi).[7]

Miloddan avvalgi I ming yillikda oromiyalar va xaldeylar hududga kirib kelishdi. Xaldeylar tomonidan tiklangan Yangi Bobil podsholigi Nabukadnezar II davrida (m.a. VI asr) o‘zining cho‘qqisiga chiqdi.[6] Bu davrda Bobil minorasi va Semiramida bog‘lari kabi inshootlar barpo etilgan bo‘lib, ular qadimgi dunyo mo‘jizalari qatoridan o‘rin olgan.

Mesopotamiya sivilizatsiyasi insoniyat taraqqiyotiga ko‘plab yutuqlarni hadya etgan. Bu yerda yozuv (mixxat), matematika, astronomiya, me’morchilik va huquq sohalari shakllandi. 60-lik sanoq tizimi, vaqt birligi sifatida soat va daqiqaning ta’rifi, oyning fazalari bo‘yicha kalendarlar aynan shu yerda paydo bo‘lgan.

Shumer epik adabiyoti, xususan “Gilgamish dostoni” eng qadimgi yozma badiiy asarlardan hisoblanadi. Bu asar orqali inson, o‘lim va abadiylik haqidagi falsafiy qarashlar o‘z ifodasini topgan. Mesopotamiya me’morchiligi – zikkuratlar, ibodatxonalar va saroylar – qadimgi diniy hayot, markazlashgan boshqaruv va ijtimoiy tabaqalanishning aniq belgilaridir. Anu-Osmon xudosi, Shamash-Quyosh xudosi, Kidan-Yer ma’budi, Enlil-Havo xudosi, Ea-Suv xudosi, Ishtar-Sevgi ma’budasi[7] va boshqa xudolar Mesopotamiya sivilizatsiyasida e’tiborga loyiq xudolar hisoblangan.

## XULOSA

Mesopotamiya sivilizatsiyasi insoniyat tarixidagi eng muhim madaniy-siyosiy tuzilmalaridan biri bo'lib, u nafaqat qadimgi Sharq, balki butun jahon tarixiga beqiyos hissa qo'shgan. Bu sivilizatsiya dastlabki shahar-davlatlar, yozuv tizimi (mixxat), qonunchilik asoslari (Xammuropi qonunlari), ilmiy bilimlar (astronomiya, matematika), diniy mafkura va murakkab ijtimoiy tuzilmalarning shakllanishi bilan ajralib turadi. Shumer, Akkad, Bobil va Ossuriya kabi madaniyatlar o'zaro uzviylikda rivojlanib, o'z davrining ilg'or sivilizatsiyalarini yaratgan.

Mesopotamiya madaniy merosi keyingi sivilizatsiyalar – Misr, Eron, Yunoniston va Rim madaniyatlariga katta ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, huquqiy va ma'muriy boshqaruv tizimlari, diniy tasavvurlar hamda yozuv an'analari orqali bu ta'sir yaqqol namoyon bo'lgan. Sivilizatsiyalararo uzviylik nuqtai nazaridan qaraganda, Mesopotamiya insoniyat tamadduning ilk asoschilaridan biri sifatida o'zining tarixiy-madaniy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Yuqorida tahlil qilingan ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, Mesopotamiya sivilizatsiyasi – bu nafaqat tarixiy bosqich, balki zamонавија jamiyatlar shakllanishiga zamin yaratgan madaniy fenomen hisoblanadi. U insoniyat tafakkurining ilk yuksalish nuqtalaridan biri bo'lib, bugungi kunda ham tarixshunoslik, arxeologiya, madaniyatshunoslik va sivilizatsiyalar nazariyasida muhim tadqiqot obyekti bo'lib qolmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R. Rajabov, "Jahon sivilizatsiyalari tarixi" (O'quv qo'llanma). Toshkent – "Mashhur-Press". 2016. 3-6-B.
2. R. Jo'rayev, "Jahon sivilizatsiyalari tarixi" (NamDU. O'quv uslubiy majmua). Namangan-2023. 19-24-B.
3. Philip J. Adler и Randall L. Pouwels. World civilization. - Wadsworth Publishing, 2005.- P. 26
4. D.J. Urakov, R.N. Tursunov, A.A. Biykuziyev, B.B. Xaynazarov, "Jahon tarixi" (o'quv qo'llanma). -Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2020, 40- B.
5. Сагғс Г. Величие Вавилона. История древней цивилизации Междуречья. / Пер. с англ. Л.А. Игоревского. — М.: ЗАО Центр- полиграф, 2012.- С. 24-25
6. U.A. Abdullayev, "Jahon Tarixi" (Qadimgi dunyo tarixi). Toshkent-2017. 93-135-B.

7. D.J.Urakov, R.N. Tursunov, A.A. Biykuziyev, B.B. Xaynazarov, “Jahon tarixi” (Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi) o‘quv qo‘llanma. Toshkent: “NAVRO‘Z” 2018. 57-58-B.
8. Островский А.В. История цивилизаций. - Санкт-Петербург. 2000.
9. Яковец Ю.В. История цивилизаций. - М., 1997.
10. Буданова В.П. История мировых цивилизаций. – М.:РУДН,2004.